



№4/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHISINING NAZARIY TAYYORGARLIGI MAZMUNI VA AHAMIYATI

Saidg'aniyev Saidaxmad Oybek o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya.

Mazkur maqolada bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash tizimida nazariy tayyorgarlikning tutgan o'rni va mazmuniy tarkibi kompleks yondashuv asosida yoritiladi. Tadqiqot doirasida nazariy tayyorgarlik tushunchasining pedagogik mohiyati ochib berilib, uning kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi funksional ahamiyati tahlil qilinadi. Ushbu maqolada jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini ilmiy asosda rejalashtirish, yuklamalarni individual xususiyatlarga mos holda belgilash, xavfsizlik va sog'liqni saqlash talablarini ta'minlashda nazariy bilimlarning amaliy qiymati asoslab beriladi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida fanlararo integratsiyani kuchaytirish, nazariy va amaliy tayyorgarlik o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash, kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quv jarayonini takomillashtirish bo'yicha metodik yo'nalishlar taklif etiladi. Tadqiqot natijalari bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini modernizatsiya qilishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar:

nazariy tayyorgarlik, jismoniy tarbiya o'qituvchisi, kasbiy kompetensiya, ta'lim jarayonini rejalashtirish, fanlararo integratsiya, kompetensiyaviy yondashuv.

Аннотация.

В статье с позиций комплексного подхода рассматривается содержание и значение теоретической подготовки в системе профессиональной подготовки будущих учителей физической культуры. Раскрывается педагогическая сущность теоретической подготовки и анализируется ее функциональная роль в формировании профессиональных компетенций специалиста. Обоснована практическая значимость теоретических знаний при научно обоснованном планировании учебно-тренировочного процесса, индивидуализации физических нагрузок с учетом возрастных и функциональных особенностей обучающихся, а также обеспечении требований безопасности и сохранения здоровья. Особое внимание уделено вопросам междисциплинарной интеграции, обеспечению взаимосвязи теоретической и практической подготовки, а также реализации компетентностного подхода в условиях высшего педагогического образования. Полученные выводы могут быть использованы при модернизации образовательных программ подготовки будущих учителей физической культуры и разработке методических рекомендаций прикладного характера.

Ключевые слова:

теоретическая подготовка, учитель физической культуры, профессиональные компетенции, планирование учебного процесса, междисциплинарная интеграция, компетентности подход.

Abstract.

This article examines the role and substantive content of theoretical preparation in the professional training system of future physical education teachers from a comprehensive pedagogical perspective. The study clarifies the conceptual foundations of theoretical preparation and analyzes its functional significance in the development of professional competencies required for effective teaching practice. Particular attention is paid to the applied value of theoretical knowledge in scientifically grounded lesson planning, rational regulation of physical loads with regard to age-related and individual characteristics of learners, and the assurance of safety and health-preserving conditions during physical education classes. The paper also substantiates the importance of strengthening interdisciplinary integration and ensuring coherence between theoretical and practical components of professional training within the framework of a competency-based approach in higher pedagogical education. The conclusions obtained may serve as a basis for modernizing educational programs for training future physical education teachers and for designing applied methodological recommendations aimed at improving the quality of professional preparation.

Keywords:

theoretical preparation, physical education teacher, professional competencies, lesson planning, interdisciplinary integration, competency-based approach.

KIRISH. So'nggi yillarda jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimiga qo'yilayotgan talablar sezilarli darajada murakkablashib bormoqda. Jamiyatda sog'lom

turmush tarzini qaror toptirish, yosh avlodning jismoniy rivojlanishini ta'minlash hamda ularning psixofiziologik imkoniyatlarini to'liq namoyon etish jarayonida jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy salohiyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlashda nafaqat amaliy-jismoniy tayyorgarlik, balki chuqur nazariy-pedagogik tayyorgarlikni shakllantirish ustuvor vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda [1].

Pedagogika klassiklarining qarashlarida o'qituvchi shaxsiga bo'lgan yondashuv alohida o'rin tutadi. Jumladan, K.D. Ushinskiy o'qituvchi faoliyatining tarbiyaviy mohiyatini ta'kidlab, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi avvalo o'qituvchi shaxsining ilmiy va ma'naviy salohiyatiga bog'liqligini qayd etadi. Ushbu yondashuv jismoniy tarbiya sohasida ham dolzarb bo'lib, o'qituvchining nazariy saviyasi mashg'ulotlarni ongli tashkil etish, metodik jihatdan to'g'ri yo'naltirish va sog'lomlashtiruvchi maqsadlarni ta'minlash imkonini beradi [2].

Zamonaviy ta'lim paradigmasi kompetensiyaviy yondashuvga asoslanib, bo'lajak mutaxassisdan kasbiy faoliyatni ilmiy asosda rejalashtirish, tahlil qilish va natijalarni baholash ko'nikmalarini talab etadi. L.S. Vygotskiy ta'limning rivojlanish jarayoniga ta'sirini izohlab, ta'lim rivojlanishdan oldinda borishi zarurligini ta'kidlaydi. Bu g'oya jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etishda o'qituvchilarning yosh va individual xususiyatlarini oldindan hisobga olish, yuklamalarni ratsional belgilash hamda o'qitish jarayonini ilmiy asosda loyihalash zaruratini asoslaydi [3].

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining samaradorligi ko'p jihatdan nazariy bilimlarning amaliy faoliyat bilan uyg'unligiga bog'liq. Oliy ta'lim amaliyotida bo'lajak o'qituvchini tayyorlashda nazariy bilimlar mashg'ulot mazmunini ilmiy asosda tanlash, jismoniy yuklamalarni dozashtirish, xavfsizlik qoidalariga rioya etish hamda sog'liqni saqlash talablarini joriy etishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi [4].

Shu bilan birga, amaliyot shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining nazariy tayyorgarligi ko'pincha alohida fanlar doirasida fragmentar tarzda shakllantiriladi, bu esa nazariy bilimlarning amaliy mashg'ulotlarga to'liq integratsiyalashuvini cheklab qo'yadi. Ta'lim jarayonida nazariy va amaliy tayyorgarlik komponentlarining uzviy bog'liqligini ta'minlash, fanlararo integratsiyani kuchaytirish hamda bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini yaxlit tizim sifatida shakllantirish zarurati yuzaga chiqadi [5].

Yuqoridagi holatlar bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining nazariy tayyorgarligi mazmuni va ahamiyatini ilmiy jihatdan tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan metodik yo'nalishlarni ishlab chiqish zarurligini belgilab beradi.

ASOSIY QISM

1. Nazariy tayyorgarlik tushunchasi va uning tarkibiy tuzilmasi

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining nazariy tayyorgarligi kasbiy faoliyatni ongli, ilmiy asoslangan holda tashkil etish imkonini beruvchi bilimlar tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu tayyorgarlik pedagogik jarayonni rejalashtirish, ta'lim mazmunini tanlash, o'qituvchilar

jismoniy rivojlanishining qonuniyatlarini hisobga olish kabi jihatlarni o'z ichiga oladi. Pedagogik nazariyada nazariy tayyorgarlik o'qituvchining kasbiy refleksiya va metodik qarorlarining sifatini belgilovchi muhim omil sifatida talqin etiladi.

Nazariy tayyorgarlikning tarkibiy tuzilmasi ko'p komponentli bo'lib, u pedagogika va didaktika asoslari, yosh fiziologiyasi va sport anatomiyasi, biomexanika elementlari, sport gigiyenasi, shuningdek, mashg'ulotlarni rejalashtirish va nazorat qilish metodikasini qamrab oladi. Mazkur bilimlar majmui jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tizimli va maqsadga muvofiq tashkil etish imkonini beradi. Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, o'qituvchining nazariy saviyasi yuqori bo'lsa, u ta'lim jarayonini moslashuvchan boshqarish va individual yondashuvni ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shuningdek, nazariy tayyorgarlik bo'lajak o'qituvchida pedagogik tafakkurni rivojlantiradi, ta'lim jarayonida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va ularni ilmiy asosda hal etish ko'nikmalarini shakllantiradi[6].

2. Nazariy tayyorgarlikning kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi o'rni

Zamonaviy ta'limda bo'lajak mutaxassisning kasbiy kompetensiyasi bilim, ko'nikma va malakalarning integratsiyalashgan majmui sifatida qaraladi. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi uchun nazariy tayyorgarlik mazkur kompetensiyalarning intellektual va metodologik poydevorini tashkil etadi. Nazariy bilimlar o'qituvchiga mashg'ulot mazmunini ilmiy asosda tanlash, jismoniy yuklamalarni ratsional dozalashtirish, sog'lomlashtiruvchi yo'nalishni to'g'ri belgilash imkonini beradi.

Pedagogik psixologiya doirasida ta'lim jarayonining rivojlantiruvchi xususiyati alohida ta'kidlanadi. Ta'lim rivojlanishdan oldinda borishi haqidagi g'oya jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etishda ham muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Nazariy tayyorgarlik xavfsizlikni ta'minlash, jarohatlanishlarning oldini olish va sog'liqni saqlash talablarini joriy etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Sport gigiyenasi va xavfsizlik qoidalarini nazariy jihatdan puxta bilish o'qituvchiga mashg'ulot jarayonida ehtimoliy xavf omillarini oldindan aniqlash va profilaktik choralarni ko'rish imkonini beradi[7].

3. Nazariy va amaliy tayyorgarlikning integratsiyasi: muammo va imkoniyatlar

Amaliyotda bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida nazariy va amaliy tayyorgarlik o'rtasida uzilishlar kuzatiladi. Nazariy bilimlar ko'pincha alohida fanlar doirasida berilib, ularning real pedagogik vaziyatlarda qo'llanish mexanizmlari yetarli darajada ochib berilmaydi. Bu holat nazariy tayyorgarlikning amaliy samaradorligini pasaytiradi.

Shu nuqtayi nazardan, nazariy va amaliy tayyorgarlikni integratsiyalashgan holda tashkil etish, fanlararo aloqalarni kuchaytirish, o'quv mashg'ulotlarini real pedagogik vaziyatlarga yaqinlashtirish muhim hisoblanadi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqilgan o'quv dasturlari bo'lajak o'qituvchida nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish (keys-stadi, muammoli vaziyatlar, raqamli resurslar) nazariy tayyorgarlikning amaliy qiymatini oshiradi. Bunday yondashuv

bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisida kasbiy refleksiya, tahliliy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi[8].

XULOSA

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining nazariy tayyorgarligi uning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda tayanch metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Nazariy bilimlarning puxtaligi pedagogik jarayonni ilmiy asosda loyihalash, mashg'ulot mazmunini maqsadga muvofiq tanlash, jismoniy yuklamalarni o'quvchilarning yosh, jins va individual funksional xususiyatlariga mos ravishda dozalastirish imkonini beradi. Shu jihatdan, nazariy tayyorgarlik o'qituvchining kasbiy qarorlar qabul qilishdagi asoslanganlik darajasini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Maqolada asoslanganidek, nazariy tayyorgarlikning yetarli darajada shakllanmaganligi ta'lim jarayonida fragmentarlik, metodik xatoliklar va mashg'ulotlarning sog'lomlashtiruvchi yo'nalishining pasayishiga olib kelishi mumkin. Aksincha, nazariy va amaliy tayyorgarlikning uzviy integratsiyasi o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiradi hamda ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlarga moslashuvchan yondashuvni ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalari asosida oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash jarayonini takomillashtirish bo'yicha fanlararo integratsiyani kuchaytirish, kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quv dasturlari va o'quv-metodik ta'minotni modernizatsiya qilish, interfaol metodlar ulushini oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Shuningdek, xavfsizlik va sog'liqni saqlash talablarini ta'minlash bo'yicha metodik ishlarni kuchaytirish, profilaktik yondashuvni kengaytirish zarur. Umuman olganda, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining nazariy tayyorgarligini tizimli rivojlantirish ta'lim sifati barqarorligini ta'minlash va sog'lom turmush tarzi kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаев А., Хонкелдиев Ш.Х. Жисмоний тарбия назарияси ва методикаси: ўқув қўлланма. - Тошкент: ЎзДЖТИ нашриёт-матбаа бўлими, 2005.
2. Ушинский К.Д. Человек как предмет воспитания. - М.: Педагогика, 1988.
3. Выготский Л.С. Мышление и речь. - М.: Лабиринт, 1999.
4. Норқобилов М.Н. Жисмоний тарбия ва спорт: ўқув қўлланма. - Тошкент: Vneshinvestprom, 2021.
5. Абдуллаев А. Жисмоний маданият назарияси ва методикаси. — Тошкент: Наврўз, 2017.
6. Ушинский К.Д. Педагогика: избранные работы. — М.: Юрайт, 2025.
7. Холматов Ф.Р. Спорт машғулотларида хавфсизлик ва жароҳатларни олдини олиш. - Тошкент: Илм зиё, 2020.
8. Исмоилов Ж.К. Олий таълимда жисмоний тарбия ўқитувчиларини тайёрлаш методикаси. - Тошкент: Фан ва технология, 2022.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

| | | |
|---|----|----|
| Yulbarsova Xurshida Abdullajonovna | | |
| <i>Bo'lajak sotsiologlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda interfaol pedagogik texnologiyalarning samaradorligi</i> | 4 | 10 |
| Axunov Umidbek Ruzibayevich | | |
| <i>Bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda kinestetik rivojlanish darajasini baholash mezonlari</i> | 11 | 13 |
| Saidg'aniyev Saidaxmad Oybek o'g'li | | |
| <i>Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining nazariy tayyorgarligi mazmuni va ahamiyati</i> | 14 | 17 |
| Каримова Наргиза Яхёевна | | |
| <i>Роль идеологического иммунитета в процессе социально-психологической адаптации молодежи</i> | 18 | 23 |
| Anvarbekova Xilola Numanovna | | |
| <i>Raqamli ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak informatika o'qituvchilarida media kompetentligini rivojlantirish</i> | 24 | 28 |
| Temirova Gulmira Alibekovna | | |
| <i>Kompetentsiyaviy yondashuv ta'lim jarayonini takomillashtirishning innovatsion yo'li sifatida</i> | 29 | 35 |
| Xamitjonov Muxammadbobir Ulug'bek o'g'li | | |
| <i>Dzyudo sportida vazn boshqaruvini takomillashtirishning pedagogik va fiziologik asoslari</i> | 36 | 40 |
| Qushmonov Adaxam Akramjonovich | | |
| <i>Xalq o'yinlari asosida talabalarining jismoniy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari</i> | 41 | 44 |
| Umarov Azizbek Vaxobovich | | |
| <i>Xorijiy ta'lim tajribalarida mediakompetentlikni rivojlantirish modellari va ularning pedagogik ahamiyati</i> | 45 | 50 |
| Abduraxmonova Dilobar Shuhratbekovna | | |
| <i>Tarbiya fani o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida individual yondashuv asosida baholash va rag'batlantirish kompetensiyalarini shakllantirish</i> | 51 | 53 |
| Qushmonov Adaxam Akramjonovich | | |
| <i>Pedagogika yo'nalishi talabalarining jismoniy faollik ko'nikmalarini xalq o'yinlari asosida rivojlantirish metodikasining samaradorligini tajriba-sinovda asoslash</i> | 54 | 57 |
| Rahmonov Mirzoxid Shavkatovich | | |
| <i>Sun'iy intellekt va ta'lim: o'zbekiston tajribasi</i> | 58 | 64 |
| Raximov Xasanboy Kamoliddin o'g'li | | |
| <i>Talaba - yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishning mentorlik modeli</i> | 65 | 70 |
| Xabibullayeva Xilola | | |
| <i>Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish yo'llari</i> | 71 | 73 |

